

RISHTON



**AL-7823051605 “Rishton, Rishton, Yangiqo‘rg‘on va Boysun tumanlari
etnoturizm salohiyatini oshirishda lokal atributlardan foydalanish” amaliy
loyihasi ilmiy jamoasining Farg‘ona viloyati Rishton tumanida
2024-yil tashkil etilgan ilmiy safari**

Tuman to‘g‘risida qisqacha. Rishton tumani – Farg‘ona viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. 1959-yil 7-martda So‘x tumani bilan birlashtirilgan. 1990-yil 27-fevralda So‘x tumani ajralib chiqqan. Shimoldan Bag‘dod, janubiy-sharqdan Oltiariq, g‘arbdan O‘zbekiston va Uchko‘prik tumanlari, janubdan Qirg‘iziston bilan chegaradosh. Maydoni 0,42,1 ming km². Aholisi 150.2 ming kishi (2003). Tumanda 1 shahar (Rishton) va bir nechta qishloq fuqarolari yig‘ini (chuburg‘on, uyrat, pandigon, tegirmonboshi, navbahor, Qipchoq, Beshkapa, Buzrukxo‘ja Usmonxo‘jayev, Bo‘ston, Yoyilma, Zoxidon, Mehnatobod, Oqoltin, Oqer, Rishton, To‘da, Dutir, Qayrag‘och) bor. Markazi – Rishton shahri.

Rishton tumaninng xaritasi



Kulolchilik san’ati: Rishton jahon xalqlariga o‘zining kulolchilik madaniyati bilan tanilgan. Kulollar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar har biri o‘ziga xos bo‘lib, ularni tomosha qilish va sotib olish sayyohlar uchun qiziq albatta. Har bir kulolning o‘z mahsulotini pardoqlashda qo‘llaydigan sirlash texnologiyasi “sir” saqlanishi ham san’at asari muallifining imzosidek ahamiyat kasb etib, ushbu jarayon sohaga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun ahamiyatlidir.



Sayyohlarga kulolchilik buyumlarini tayyorlash jarayonini ko‘rsatish, ularning o‘z qo‘llari bilan buyum yaratishlariga imkoniyat berish qolaversa, kulolchilikda muhim o‘rin tutgan Ustoz-shogird an‘anasi XVIII asrdan buyon xorijlik tadqiqotchilarni diqqat e’tiborida bo‘lgan va bu an’anani o‘rganish natijasida xorijlik tadqiqotchilar tomonidan o‘nlab “risola”lar yozilgan. Ustoz-shogird an‘analarini asilicha tiklash va uni sayyohlarga namoyish qilish ham sayyohlar sonini ortishiga xizmat qiladi.

Xususan, Rishton tumani Oqtomir mahallasida qo‘y va echki yungidan kigiz, gilam, bejirim oyoq va bosh kiyimlari, nimcha va boshqa maxsulotlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu jarayonni Boysun tumani aksariyat qishloqlari, Yangiqo‘rg‘on tumani Mo‘g‘ol mahallasi, Chust tumani Qoraqo‘rg‘on mahallalarida Qal’a ko‘chasi 17-uyda istiqomat qiladigan Zulayxo opa xonadonida ham kuzatish mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, hunarmandchilikning ushbu tarmog‘i

allaqachon sayyohlarni qiziqtirib, ayrim manzillar tur mashrutga kiritilgan va hozirgi kunda turlar amalga oshirilmoqda.



Boysun, Rishton, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlariga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun milliy hududlarga xos maxsus taomlari mavjud bo'lib, ularga ayniqsa Chust va Rishtonda osh tayyorlashning o'ziga xos an'analari saqlanib



qolgan. Chust oshining asosiy fishkasi tumanda mavjud buloq suvlaridan foydalanishda bo'lsa, Rishton oshining asosiy lazzat beruvchi ta'mi Cho'ng'ara devzira guruchi bilan bog'liq.

Universitetning ilmiy ijodiy guruhi

eksklav (Qirg'izistonning ichki hududida) hudud xisoblangan Cho'ng'ara mahallasida bo'ldi va u yerda Rishton oshining asosi bo'lgan Cho'ng'ara devzirasi guruchining yetishtirish an'alarini o'rgandi. Qishloqdan oqib o'tadigan So'x daryosining suvi ayni eki nni sug'orish davrida loyqa oqib, ko'plab minerallarni oqizib keladi va sholi yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qishloq ahli bu suvni shu sababli "oq suv" deb ataydi.



Rishton tumani aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, qirg'iz, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillaridan iborat. Tuman hududi Markaziy Farg'ona cho'lining janubidada, So'x daryosi va Katta Farg'ona kanali bo'yida joylashgan. Tuman markazi Rishton va unga yondosh qishloqlarda qadimdan kulolchilik rivojlangan. Qishloq xo'jaligi bog'dorchilik, tokchilikka ixtisoslashgan. Mashhur qandak o'riklari va Cho'ng'ara devzira guruchi yetishtiriladi. Tumanda tarixiy me'moriy obidalardan "Sohibi Hidoya", "Yigitpirim" "Hizrbuva", "Xo'jailg'or", "Xo'ja Ro'shnoyi", "Toshkelinchak" kabi ziyoratgohlar madaniy meros agentligi tomonidan ro'yxatga olingan. Ushbu ziyoratgohlar ayniqsa ichki turizmning jozibador atributlari sifatida sayyohlar uchun ma'lum infratuzilmalar yaratilgan.



Rishton shahri Buyuk Ipak yo'li yoqasida joylashgan va o'sha davrda paydo bo'lgan eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Shahar qadim zamonlardan beri O'rta Osiyodagi noyob sirlangan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik savdo markazlaridan biri sifatida tanilgan. Rishton so'zi qadimiy so'g'd tilida „Rash“ („Rush“, „Rushi“) so'zidan olingan bo'lib, „qizil yer“ ya'ni

qizg'ish tusga ega sopol loy degan ma'noni anglatadi.

Ilmiy guruh Rishton tumanidagi "Hunarmandlar markazi", "Kulollar uyidagi kulolchilik bilan tanishib, Tumanning etnoturizm salohiyatini oshirishga doir asosiy atributlardan biri



hisoblanadi. Shuningdek, turizm mahallarida oddiy aholi bilan gaplashib, hududga xos etnoturizmning atributlari haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Rishtonda ekspeditsiya davomida kigiz tayyorlash, tandirchi kulolar an'analari, guruch tayyorlash an'analari, kulollar sulolasining kasbiy o'zliklari, osh tayyorlash va mehmondorchilik an'analari, Osh markazli, choyxonlar kabi gostonomik turizm obyektlarining yangi yo'nalishlari o'rganildi.



1. Rishton tumani Oqtomir MFY, Oqtomir ko'chasi 12-uyda istiqomat qiladigan G'ofurov Bahromjon Ibrohimovich xonadonida bo'lib, qirg'izlarga xos kigiz tayyorlash jarayoni bo'yicha videokontent olindi. Kigizchilik G'ofurovlar

xonadoniga avloddan avlodga o'tib kelayotgan soha hisoblanadi. Xonadon bekasi Gulbahor opani qayd etishicha, kigiz hozirgi kundagi zamonaviy gilamlarga nisbatan pishiq va puxtaligi, ayniqsa, namlikni o'tkazmasligini ajralib turadi.

G'ofurovlar oilasida nafaqat kigiz va gilamchilik, balki, chorvadorlar uchun o'tovlar tikishda foydalaniladigan yopqichlar, o'tovlarni bezatish uchun turli matolar ham tayyorlanmoqda. Ushbu xonadon Oqtomir MFYni turizm qishlog'iga aylantirishda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, uylarida an'anaviy qirg'iz moddiy madaniyatiga oid "Gofurov's Museum"ni tashkil qilinishi hamda alloqachon xorijiy turistlarni qabul qilishni boshlagani diqqatimizni tortdi.



2. Rishton tumani Oq er MFY, Konstitutsiya ko'chasi 15-uyda istiqomat qiladigan uchinchi avlod tandirsoz usta Jo'rayev Salohiddin Hakimovichning xonadonida bo'lib, hududga xos tandir tayyorlash an'anasi bilan tanishildi va videokontentlar



olindi. Ustaning aytishicha, tumanning o'ziga xos tabiati, xususan, tuprog'i tandirsozlikning an'anaga aylanganligi va ushbu qishloqda yasalgan tandirlar xorijga ham eksport qilish imkoniga ega bo'lib, hattoki, Rossiyaga ham Rishton tandiridan qurib berilganligi ayni haqiqatdir. Chinakam usta tomonidan yasalgan tandir bir necha yillar davomida egasiga xizmat qiladi. Loy bilan ishlash faqatgina qattiq mehnat va chidamlilikni emas, balki uni tayyorlash bo'yicha bilimlarni egallashni talab qilishini anglab yetdi.



Tandirsozlik ishini puxta o'zlashtirgan Salohiddin Jo'rayev endilikda bu hunarni o'g'li Asliddin Hakimovga ham o'rgatmoqda. 27 yoshli Asliddin ham hozirgi kunda usta maqomiga ega bo'lib, o'zining

shogirdlariga ega. Hali maktabga bormasdanoq tandirsozlik sir asrorlarini o'rgana boshlagan Asliddin, hozirgi kunda el tanigan usta, u yasagan tandirlar esa hozirgi kunda tumanda aksariyat oilalarning dasturxoniga issiq nonlar pishishiga xizmat qiladi.

3. Rishton tumani Cho'ng'ara MFY da bo'lib, qishloq faollari va bobodehqonlar bilan uchrashib, tumanni mashhur qilgan etnoturizm atributi



hisoblangan “cho'ng'ara guruchi” tayyorlanishiga oid videokontentlar olindi. O'zbekistonning eksklav hududi hisoblangan Cho'ng'ara qishlog'ida asosan qirg'iz millatiga mansub fuqarolar istiqomat qiladi. So'lim qishloq

aholisi asosan sholi yetishtirish bilan shug'ullanadi. Cho'ng'araga borish uchun Rishton tumanidagi chegara post hamda qo'shni Qirg'izistonning Qaytpas davlat chegara postlaridan o'tdik. Guruchi bilan mashhur qishloq Rishton tumani markazidan 27 kilometr uzoqlikda joylashgan. Chegara nazorati postlaridan o'tib olgach Cho'ng'ara qishlog'i tomon yo'l oldik.

Cho'ng'ara MFY oqsoqoli Rustam Boynazarov shunday deydi: Qishlog'imiz chekka hudud bo'lsa ham, deyarli barcha sholikorlik bilan shug'ullanadi. Guruchimiz ta'rifi butun respublikada mashhur. Guruchimiz mazasi boshqachaligi sababi So'x daryosidan suv ichadi, juda toza,



shirin suv. Bundan tashqari, havomiz ham juda toza. Hozir yig'im-terim bo'lyapti, to noyabr oyining o'rtalarigacha dehqon hosilini yig'ishtiradi. Keyingi kuzgacha shu sholini sotib tirikchilik qilishadi”, – qo'shimcha qildi MFY raisi Rustam aka Boynazarov.

Qishloqda ikkita objuvoz bo‘lib, ular nafaqat mahalliy aholini balki, boshqa atrof qishloqlarda qirg‘iz va o‘zbek dehqonlarining sholisidan tayyor mahsulotga aylantirishga xizmat qiladi. Objuvoz egasining aytishicha, 5 daqiqada 150 kg sholini qayta ishlay oladi, keyin kelida uriladi. Tayyor guruchlarni butun vodiya, xususan, Rishton, Oltiariq, Qo‘qon, Farg‘onaga tarqatiladi.

4. Rishton tumanida “Kulolning bir kuni” rukni doirasida Rishton shahar, Navoiy MFY, Roshidoniy ko‘chasi 4-uyda yashab, faoliyat olib boradigan usta kulol To‘laganov Iqbol Zokirovich ustaxonasida bo‘lib, an‘anaviy kulolchilik sir asrorlariga oid videokontentlar olindi.



Bu yerda, ya'ni Rishtonda oddiy loydan dunyoning eng yaxshi muzeylariga munosib ajoyib bo‘yalgan idishlar yasash san‘ati avloddan avlodga erkaklar kasbi orqali o‘tib kelmoqda. O‘zbek kulolchiligining boy palitrasida Rishton mahsulotlari o‘zining samoviy rang-barangligi va uchqur mo‘yqalam tasviri, unumdorlik, mehmondo‘stlik va sehrli himoya timsollari bilan ajralib turadi. Bular nafaqat uy-ro‘zg‘or buyumlari, balki ilohiy sinoatga ega yuksak san‘atdir. Xuddi shu kabi



kulolchilikning san‘atga aylantirgan ustalardan biri Iqbol To‘laganov ham uchinchi avlod kulol bo‘lib, hozirgi kunda uy ustaxonasida 1000 dan ortiq mahsulotlar tayyorlaydi, ularni mahallaiy aholiga sotib tadbirkorlik qiladi hamda xorijiy va

mahalliy turistlarga in'om qiladi. Kulolning bir kunini o'rganish asnosida ushbu hunarning murakkabligi, insonga yuksak darajada did va kreativlik uyg'unligini kuzatish mumkin.

Kulolchilik san'atining eng rivojlangan hududlaridan biri



Rishton shahri bo'lib, rishtonlik ustalar tomonidan yaratilgan ushbu san'at namunalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu hunarmandchilik san'ati shaharda aholi punktlari paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan san'at turi hisoblanadi. Bir tomondan Xitoy va Hindiston, ikkinchi tomondan Fors va Yaqin Sharq o'rtasidagi karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Rishton



shahri turli sohalarda jadallik bilan rivojlangan holda o'sha davrning eng muhim savdo markazlaridan biriga, Buyuk Ipak yo'lining tranzit nuqtasiga aylangan. Shaharda, shuningdek, Dahbed, Chinnigaron, Qo'zagaron, Kulolon singari

kulolchilik mahallalari ham joylashgan.

IX—XII asrlarda Rishton kulolchiligi Farg'ona vodiysining mashhur kulolchilik markazlari – Axsikent, O'sh, Xo'jand, O'zgan, Quva, Konibodom kulolchiligidan o'zia xos jihatlari bilan ajralib turgan va bugungi kungacha qadimiy an'alarini saqlab kelmoqda.

Rishtonda qadimdan kulolchilik buyumlarini yaratishning noyob texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, Rishton kulollari o'zlarini kulolchilik san'ati asoschilari avlodlari va qadimgi an'analarni davom ettiruvchi ustalar deb bilishadi.

5. Rishton shahrining markazidagi choyxona, restoran, mehmonxona, muzey va boshqa ko'ngilochar maskanlarni o'zida birlashtirgan "Chinor plyus" kompleksiga tashrif buyurib, mahalliy va xorijiy turistlarga



xizmat ko'rsatilishiga oid videokontentlar olindi. Shuningdek, majmuaning choyxona qismida "Rishton osh"ini tayyorlanishi tasvirga tushirildi va ta'sischilari bilan kelajakda loyiha natijasida keladigan xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish uchun hamkorlik o'rnatish masalalari kelishib olindi.

Ilmiy safar natijalari bo'yicha Rishton tumani hokimiyatida turizm bo'yicha mas'ullar bilan tumanning etnoturizm salohiyatini oshirishga doir hamkorlik masalalari, xususan, tumanning turizm xaritasini yaratish hamda yangi turmarshrutlar ishlab chiqish bo'yicha kelishib olindi.